SOTSIOMETRIK MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRIN TIZIMIDA PEDAGOGIK TOLERANTLIKNING O‘RNI

Joldasbaeva Arzigul
Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI 3-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish tizimida pedagogik tolerantlikning ahamiyati yoritilgan. Ta'lim jarayonida o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik va samarali muloqotni shakllantirishning pedagogik asoslari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: pedagogik tolerantlik, sotsiometriya, bag‘rikenglik, o‘qituvchi, o‘quvchi, pedagogik muloqot.

Аннотация. В статье рассматривается значение педагогической толерантности в системе развития социометрических отношений. Анализируются условия формирования уважительного и конструктивного взаимодействия в образовательной среде.

Ключевые слова: педагогическая толерантность, социометрия, уважение, взаимодействие, образование.

Abstract. The article discusses the importance of pedagogical tolerance in the development of sociometric relations. It analyzes the conditions for fostering respectful and constructive interaction in education.

Keywords: pedagogical tolerance, sociometry, respect, interaction, education.

O‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida hurmat, bag‘rikenglik, muloqot madaniyati va bir birini qabul qilish, anglash, qo‘llab quvvatlashga asoslangan munosabatlar tizimidir. U nafaqat axloqiy sifat bilan bir qatorda pedagogik faoliyatning muhim sharti sifatini ta’minlovchi omil hisoblanadi. U o‘qituvchi va o‘quvchilar guruh orasidagi sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sotsiometrik munosabatlar tushunchasi Jacob Moreno tomonidan ilmiy asoslangan bo‘lib, u guruh a’zolari o‘rtasidagi emotsional yaqinlik, o‘zaro tanlash, ishonch va ijtimoiy aloqalar tarmog‘ini tahlil qilish imkoniyati sifatida vujudga kelgan. Ta’lim jarayonida esa sotsiometriya o‘quvchilarning o‘zaro bir biriga munosabati, liderlik pozitsiyalari, ijtimoiy maqomi hamda o‘qituvchining fasilitatorligini namoyon qilishi uchun qulay sharoit yaratadi. Pedagogik tolerantlik esa ta’lim jarayoni sub’ektlari orasidagi sotsiometrik munosaatlarni rivojlantiruvchi muhim mexanizm va o‘qituvchining kasbiy sifati darajasida namo-

yon bo‘ladi.

Pedagogik tolerantlik birinchi navbatda, o‘quvchilar guruhida sog‘lom pedagogik muhit yaratish omili hisoblanadi. Ko‘p asrlik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, bag‘rikeng, bardoshli va adolatli o‘qituvchi o‘quvchilarga ishonch hissini uyg‘otadi, ularning fikrini erkin bayon qilishga imkoniyat yaratadi. Sharq mutafakkirlari ta’lim-tarbiya masalalarida o‘qituvchining shaxsiga, ayniqsa uning bag‘rikengligi, ya’ni tolerantligi, adolatparvarligi va insonparvarligiga alohida e’tibor qaratganlar. Ularning qarashlarida o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki ma’naviy kamolotga yetaklovchi, qalb tarbiyachisi sifatida talqin etilgan. Pedagogik tolerantlik esa ushbu jarayon samaradorligini ta’minlovchi asosiy kasbiy-shaxsiy sifat hisoblanadi. Jumladan, Abu Nasr Farobiy ta’lim-tarbiyani jamiyat taraqqiyotining asosiy omili deb bilgan. Uning fikricha, muallim insonlarni komillikka yetaklovchi shaxs bo‘lib, u adolatli, sabr-toqatli va bag‘rikeng bo‘lishi shart. Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida o‘qituvchini fozil inson sifatida ko‘rgan va talqin etgan. O‘quvchidagi barcha ijobiy sifatlar o‘qituvchining tolerant munosabati mahsuli ekanligi mutafakkirlar tomonidan qayta qayta ta’kidlangan. Farobiyning fikriga ko‘ra, o‘qituvchi o‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olib, ularga nisbatan bir xil mehr va e’tibor ko‘rsatishi lozim.

Abu Ali ibn Sino ham o‘qituvchi shaxsi, uning toderantligi, sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish mahoratiga muayan talablar qo‘ygan. U ta’lim jarayonida zo‘ravonlik va qattiqqo‘llikni qoralab, mehr-muhabbat va muloyimlikka asoslangan munosabat zarurligini ilgari suradi. Ibn Sino bola qalbi nozik bo‘ladi, shuning uchun o‘qituvchi tolerant bo‘lib, har bir o‘quvchiga ruhiy jihatdan yaqinlashishi kerak deb hisoblaydi.. Bu yondashuv o‘quvchining bilimga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va uning sotsiometrik rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Abu Rayhon Beruniy o‘z asarlarida ilm olish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarda sabr-toqat va o‘zaro hurmatning muhimligini ta’kidlaydi. Ustoz va shogird o‘rtasidagi munosabatlar samimiy va ishonchli bo‘lishi lozimligi mutafakkir tomonidan e’tirof etilgan. Beruniyning fikricha, tolerant o‘qituvchi o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va izlanishga bo‘lgan intilishni kuchaytiradi.

Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asarida muallimning axloqiy fazilatlariga alohida e’tibor qaratgan. Unda adolat, insof, sabr va tolerantlik ustoz-murabbiylarning asosiy sifati ekanligi ta’kidlangan. U o‘qituvchi o‘quvchiga hikmat va muloyimlik bilan ta’sir ko‘rsatishi kerak degan hoyani ilgari surgan.

Alisher Navoiy o‘z she’r va dostonlarida ustozning insonparvarligi

va mehr-oqibatli bo‘lishi zarurligini e’tirof etgan. Uning asarlarida insonga hurmat, kechirimlilik va bag‘rikenglik yuksak qadriyat darajasida talqin etiladi. Navoiyning qarashlariga ko‘ra, ustoz o‘z shogirdlariga nisbatan mehribon va bag‘rikeng bo‘lsa, ularda ham shu sifatlarning shakllanishiga asos bo‘ladi. Shuningdek, shox va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur ham o‘z maktublari va “Boburnoma” asarida muloyimlik, ochiqlik va o‘zaro bir birini tushunishning muhimligini ta’kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, shaxslararo munosabat-muomalada qattiqqo‘llik emas, balki oqilona va bag‘rikeng munosabat ustuvor bo‘lishi kerak.

Sharq mutafakkirlarining e’tirof etishlariga ko‘ra, o‘qituvchining tolerantiligi quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- o‘quvchilarda o‘zaro ishonch va hurmat hissini shakllantirish;
- ta’lim-tarbiya jarayonida guruhda ijobiy psixologik muhit yaratish;
- o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish;
- axloqiy tarbiya imkoniyatlarini kengaytirish kabilar.

Bu o‘z navbatida o‘qituvchi hamda o‘quvchilar orasidagi sotsiometrik munosabatlarni barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Ko‘rinib turibdiki pedagogik tolerantlik o‘quvchilardagi ijtimoiy cheklanish, og‘ish va marginallashuvning oldini oladi. Har bir sinfda turli xarakterga ega, muloqotga kam kirishadigan yoki o‘qishda qiynaladigan o‘quvchilar faoliyat ko‘rsatadi. Agar o‘qituvchi tolerant yondashuvni qo‘llasa, bunday o‘quvchilarni faol ishtirokga jalb etadi, ularni qo‘llab-quvvatlaydi. Bu esa sotsiometrik statuslar o‘rtasidagi keskin farqlarni yumshatib, guruhda tenglik va hamjihatlikni ta’minlaydi.

Pedagogik tolerantlik kommunikatsiya madaniyatini rivojlantiradi. U bo‘lajak o‘qituvchini turli fikrlar, qarashlar va dunyoqarashlarni qabul qilishga o‘rgatadi. Bu jarayonda o‘quvchilar nafaqat o‘z fikrini bildirishni, balki boshqalarni tinglash va tushunishni ham o‘rganadilar. Natijada o‘zaro hurmatga asoslangan muloqot shakllanib, sotsiometrik aloqalar mustahkamlanadi. Shunindek, pedagogik tolerantlik konfliktlarning oldini olish va ularni konstruktiv hal qilishda pedagogik tolerantlikning o‘rni katta. Ta’lim jarayonida turli kelishmovchiliklar tabiiy hol. Ammo tolerant muhitda bu nizolar ziddiyatga aylanmaydi, balki muloqot va tushunish orqali hal etiladi. Bu esa guruhdagi ijtimoiy munosabatlarni barqaror saqlashga xizmat qiladi.

Pedagogik tolerantlik o‘quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantiradi. Masalan, empatiya, hamkorlik, mas’uliyat, ijtimoiy faollik kabi sifatlar aynan tolerant muhitda shakllanadi. Bu sifatlar esa sotsiometrik munosabatlarning sifat jihatdan yaxshilanishiga olib keladi.

Pedagogik tolerantlikni rivojlantirish muammoga kompleks yon-

dashishni taqozo qiladi. Bu borada quyidagi yo‘nalishlar muhim ahamiyatga ega:

- ta’lim jarayonida interaktiv va hamkorlikka asoslangan metodlardan foydalanish zarur.

- empatiya va refleksiyani rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlarni aniq loyihalash va tashkil etish lozim.

- milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish muhimdir.

Bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat, inson qadrini e’zozlash kabi tamoyillar ta’lim mazmuniga integratsiya qilinishi kerak.

- sotsiometrik diagnostikadan samarali foydalanish lozim. Sotsiometriya usuli orqali guruhdagi munosabatlar tahlil qilinib, qaysi o‘quvchilar izolyatsiyada ekanligi yoki liderlik pozitsiyasida turgani aniqlanadi. Shu asosda pedagogik ta’sir choralari ishlab chiqiladi.

Pedagogik tolerantlikni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, jumladan, konstruktivistik va ijtimoiy-madaniy yondashuvlar ham muhim o‘rin tutadi. Bu yondashuvlar ta’limni muloqot, hamkorlik va ijtimoiy tajriba asosida tashkil etishni taqozo etadi. Xulosa qilib aytganda, pedagogik tolerantlik sotsiometrik munosabatlarning sifatini belgilaydigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. U guruhda ijobiy psixologik muhit yaratish, o‘zaro ishonchni mustahkamlash, ijtimoiy adolat va hamkorlikni ta’minlash orqali ta’lim samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Safarova R.G. O‘qituvchi-o‘quvchi orasidagi sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish mexanizmlari // “Pedagogika” jurnali. 2026-yil, 1-son. 26-30-b.

2. Морено Я.Л. Социометрия: экспериментальный метод и наука об обществе / Пер. с англ. А. Боковикова. - М.: Академический проект, 2004. - 315 с.

3. Левин Курт. Динамическая психология: избранные труды. - М.: Смысл, 2001.- 572 с.

4. Роджерс К. Клиент-центрированная психотерапия: теория, современная практика и применение. - М.: Психотерапия, 2007. - 560 с.